

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobbiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva, f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: *N.Yusupov.*

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-maydagi kengaytirilgan 5-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 5). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023



SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARIDAN FOYDALANISH ORQALI I-IV SINFLAR O'QUVCHILARINI JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH

Ismoilov Turobjon, professor v.b. NamDU

Alijonov Oybek, katta o'qituvchi NamDU

G'ofurov Mirzohid, o'qituvchi NamDU

Annotatsiya: mazkur maqolada 1-4 sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlarining ahamiyati batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, harakat faolligi, pedagogik tajriba.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ПОВЫШЕНИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ I-IV КЛАССОВ

Исмоилов Туробжон, и.о. профессор НамГУ

Алижжонов Ойбек, старший преподаватель НамГУ

Гофуров Мирзохид, преподаватель НамГУ

Аннотация: в данной статье раскрывается сущность проведения оздоровительных мероприятий в учебном процессе учеников 1-4 классов.

Ключевые слова: физическое воспитание, оздоровление, физическое развитие, физическая подготовка, двигательная активность, педагогический эксперимент.

USE OF FITNESS EVENTS IN INCREASING THE PHYSICAL TRAINING OF I-IV CLASSES PUPILS

Ismoilov Turobjon, professor of NamSU

Alijonov Oybek, teacher of NamSU

G'ofurov Mirzohid, teacher of NamSU

Annotation: this article is dedicated to the study of the importance of health care activities to be held in primary forms of secondary schools

Key words: physical training, recovery, physical developing, physical readiness, physical training, physical activity, pedagogical experience.

Mamlakatimizning eng asosiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom, barkamol va yetuk insonlar qilib tarbiyalashdir. Respublikamiz rahbariyati va prezidentimiz tomonidan yosh avlodni komil inson qilib voyaga etkazish borasida katta ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mustaqillikni dastlabki kunlardan boshlab hukumatimiz rahbariyati tomonidan jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor qaratilishi munosabati bilan dunyo mamlakatlari ichida birinchi bo'lib "Sog'lom avlod uchun" ordenini ta'asis etildi.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarini qabul qilinishi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni fikrimizning yorqin ifodasidir[1;2;3].



Respublikamizda aholini salomatligini mustahkamlash borasida ham muntazam ravishda katta ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda ommaviy sportning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida 2017-yil 3-iyunda "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bugungi kunda ham sportga oid bo'lgan barcha ishlarini tizimli yo'lga qo'yishda ham dasturi amal bo'lib kelmoqda[4].

Bugungi kunning eng asosiy, dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri umumiy o'rta ta'lim maktablarida ommaviy sportning sifati hamda samaradorligini oshirish bilan o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini va sog'ligini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Bu vazifalarni sifatli va samarali amalga oshirishda prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni hayotga tadbir etilishi katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom, etuk va har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya va o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlarining o'rni kattadir[5].

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlilidan ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya olayotgan boshlang'ich sinf o'g'il va qiz bolalarining kunlik harakat faolligi va jismoniy tayyorgarligi ularning yoshi uchun qo'yilgan me'yor talablariga to'liq javob bermaydi[6].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilgan pedagogik kuzatishlardan, o'tkazilgan suhbatlardan va so'rovnomalardan ayon bo'ldiki, hozirgi kunda o'quvchilar o'rtasida dars tayyorlashga, televizor ko'rishga va kompyuter bilan shug'ullanishlariga vaqt ko'proq sarflanayotganligi kun tartibiga to'liq rioya qilmayotganligi sababli ularning jismoniy tayyorgarligi past ekanligi va organizmning kunlik harakatga bo'lgan ehtiyoji kundan-kunga ortib borayotganligi ma'lum bo'ldi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarning kunlik harakat faolligi va jismoniy tayyorgarligi quyidagilarga: ularning kun tartibiga rioya qilishiga; haftalik jismoniy tarbiya darslariga va o'quv o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlarida faol ishtirok etishiga; sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan sport to'garaklarida muntazam reja asosida shug'ullanishiga; ommaviy sport tadbirlarida, musobaqalarda faol ishtirokiga; maktabda, mahallada va oilada tashkil qilinadigan jismoniy tarbiyaga hamda sport bayramlariga; yashash uchun yaratilgan sharoitga bevosita bog'liqdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini va kunlik harakat faolligini oshirish bugungi kunning eng asosiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini va kunlik harakat faolligini oshirish ularning salomatligini mustahkamlashdagi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi.

1-4 sinf yoshidagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini va kunlik harakat faolligini oshirish maqsadida o'quv kun tartibidagi jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish bo'yicha bolalarning pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda dastur ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishlarini o'tkazish jarayonida ishlab chiqilgan dastur asosida tajriba-sinov guruhida o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan olib borildi va muntazam ravishda nazorat qilindi.



Nazorat guruhidagi o'quvchilar bilan o'quv kun tartibidagi jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlari oldin qanday bo'lsa shundayligicha o'tkazildi va nazoratchi tamonidan hech qanday ta'sir ko'rsatilmadi.

1-4 sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishini o'rganish maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida dastlabki va yakuniy antropometrik ko'rsatkichlar olindi.

Yig'ib olingan ma'lumotlarni tahlilidan aniqlandiki, tajriba va nazorat guruhlarida dastlabki va yakuniy jismoniy rivojlanish bo'yicha olingan antropometrik ko'rsatkichlarda ikkala guruhda ham natijalar ijobiy tomonga o'zgargan.

Tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning qayd etgan ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslaganimizda tajriba guruhi bolalari nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan bir oz yaxshiroq jismoniy rivojlanishida ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlilidan ko'rinib turibdiki, 1-4 sinf o'quvchilari bilan olib borilgan o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari ularning jismoniy rivojlanishni yaxshilanishiga ko'maklashadi.

1-4 sinf o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida testlar olindi.

O'quv yilini sentyabr oyidan may oyigacha o'tkazilgan tadqiqot ishlarida tajriba va nazorat guruhlaridagi dastlabki va yakuniy testlar orasidagi farqlar ijobiy tomonga o'zgargan.

Olingan natijalarni tajriba va nazorat guruhlarimizni bir-biriga taqqoslaganimizda tajriba guruhidagilar nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan barcha testlar bo'yicha yaxshi natijalar ko'rsatgan va statistik jihatdan farqga erishganliklari ma'lum bo'ldi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 1-4 sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlaridan aniqlandiki, bolalarning yosh xususiyatlarini, jismoniy rivojlanishini va tayyorgarligini hamda maktab sharoitini hisobga olinib tashkil qilinsa va o'tkazilsa, ularning kunlik harakat faolligi oshadi hamda jismoniy sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishi aniqlandi.

1-4 sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqot ishlaridan ayon bo'ldiki, o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari tuzilgan reja asosida o'z vaqtida va muntazam o'tkazilishi natijasida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, tayyorgarligi hamda harakat faolligi yaxshilanishi ma'lum bo'ldi.

Yig'ib olingan ma'lumotlarning tahlilidan ma'lum bo'ldiki, tajriba-sinov guruhidagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi yaxshilanishi bilan birgalikda ularning kunlik harakat faolligi ortganligi aniqlandi, dastlabki va yakuniy olingan testlar bo'yicha statistik farqqa erishildi.

Nazorat guruhidagi bolalardan olingan ma'lumotlar taqqoslanganda ularning jismoniy tayyorgarligi va kunlik harakat faolligi yaxshilangan bo'lsada, lekin statistik farqqa erishilmadi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlarini bolalarning pedagogik xususiyatlarini hisobga olib o'tkazilishi, ularning salomatligini mustahkamlash bilan birgalikda jismoniy tayyorgarligini oshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни. – Тошкент. 2015. 4 сентябрь. ЎРҚ-394-сон.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. – Тошкент. 2020. 23

сентябрь. ЎРҚ-637-сон.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент. 2022. 22 январь. ПФ-60-сон.

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. – Тошкент. 2017. 3 июнь. ПК-3031-сон.

5.Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис. ... пед. фан. ном. – Тошкент: 2010. – 157 б.

6.Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Монография. – Наманган. 2022. – 112 б.

YOSHLARGA KURASHNING TA'LIMIIY VA TARBIYAVIY AXAMIYATINI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

A.R.Abdulaxatov Tosh.vil. CHDPI. dotsent

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada kurash sportining yoshlar tarbiyasida ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, manaviy –axloqiy tarbiya vositasi ekanligi aytib o'tilgan. Kurashning ta'lim-tarbiya jarayonida va sport musobaqalarida yoshlarga millatimizning faxri, iftixori ekanligini, uning shaxsni xar tomonlama uygun rivojlantirishda tutgan o'rni haqida malumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Kurash sporti, polvon , kurash ilmi, kurash ma'naviyati, kurashning ilmiy yangiliklari, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi, kurash milliy qadriyat, kurash texnikasi, kurash falsafasi.*

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalari o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Kurash azal-azaldan oliyjanoblik, mardlik va halollik timsoli, xalqimizning bir necha ming yillik tarixga ega milliy-madaniy me'rosning qismi va bebaho boyligi xisoblanadi.

Barchasining maqsadi bitta – raqibni yengish, yengganda ham kuragini yerga tekkizib, yengish. Faqat bunga erishish yo'llari, usullari biroz farqlanadi.

Aslida "kurash" so'zi halollik va to'g'rilikni ifodalaydi. Boshqa turlarni kamsitmagan holda aytish mumkin-ki, kurash ularning orasidagi eng to'g'ri va haloli.

Kurashning ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha olimlar tomonidan bugungacha muayyan darajada amaliy ishlar olib borilgan. Xususan, kurashning falsafiy, ma'naviy asoslari, uning shaxs tarbiyasidagi o'rni kabi masalalar O'.Ibrohimov, X.T.Rofiev, F.Q.Axmedov, A.R.Abdulaxatov, A.N.Shopulatov kabilar tomonidan o'rganilgan. Kurashchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish, kurash usullarini samarali



62	Применение квеста при обучении языку для формирования лингвистических компетенций студентов Абдужалилова Н. А.	683
63	Jahon ta'limida boshlang'ich ta'limning taraqqiyot bosqichlari Kamolov B. X.	689
64	O'quv mashg'ulotini samarali tashkillashtirishda mashq va topshiriqlarni o'quv jarayoniga moslashtirish Bo'ribayeva Sh. A.	694
65	Globalashuv sharoitida yoshlarni turli axborot taxdidlaridan himoyalashning psixologik ijtimoiy shart-sharoitlari Saliyeva D. A.	699
66	Причины конфликтов в студенческой среде Имомов И. А.	706
67	Badiiy asarlarda inson tasviri Hamidova M. O.	710
68	Shaxs ma'naviy-psixologik shakllanishida tafakkurning rolini tadqiq qilish Madgafurova D. O.	716
69	Xalq o'yinlari vositasida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini modellashtirish Alikulov A. A.	722
70	Ona tili va chet tillarini o'rganishda zamonaviy yondashuvlar Ashirbayeva N. A.	726
71	Sog'lomlashtirish tadbirlaridan foydalanish orqali i-iv sinf o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini oshirish Ismoilov T., Alijonov O., G'ofurov M.	730
72	Yoshlarga kurashning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini singdirishning pedagogik asoslari Abdulaxatov A.R.	733
73	Роль гуманитарных наук при обучении на основе кредитно-модульной системы Мамаджанова М. Р.	736
74	Применение иммерсивного подхода в обучении информатике Мамаджанова С. В.	741
75	Integratsion yondashuv mohiyati va nazariy jihatdan tahlili Muslimov Sh. N.	744
76	O'qituvchilar kasbiy sifatlarini shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari Nishonov A. O.	750
77	Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti Dusimbetova N. B.	754
78	Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini tatbiq etishda tarbiyachi mahorati Maxbuba S. A.	764